



Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
I bob. Geometriyaning boshlang'ich tushunchalari	Eng sodda geometrik shakllar	Tekislikda nuqta va to'g'ri chiziqning o'zaro joylashuvini aniqlay oladi	Rasmda tasvirlangan to'g'ri chiziqlar va nuqtalar uchun quyidagilarni aniqlang: 1) a to'g'ri chiziqqa tegishli; 2) har ikkala to'g'ri chiziqqa tegishli; 3) a to'g'ri chiziqqa tegishli, lekin b to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan; 4) b to'g'ri chiziqqa tegishli, lekin a to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan; 5) a to'g'ri chiziqqa ham, b to'g'ri chiziqqa ham tegishli bo'lmagan nuqtalarni. 	5
	Kesma. Kesmalarni taqqoslash va o'lchash	Berilgan shartlar asosida nuqtalarni kesmaga joylashtira oladi, kesma uzunligini topa oladi	Agar $C \in AB$, $D \in AB$, $AB = 5$ cm, $AC = 2,2$ cm va $BD = 3,6$ cm bo'lsa, CD kesma uzunligini toping.	5
		Uzunlik o'lchov birliklari orasidagi munosabatdan	AB kesmani C va D nuqtalar ketma-ket kelgan AC , CD va DB qismlarga ajratadi. Agar AC kesmaning uzunligi	5

		foydalanib kesma uzunligini topa oladi	21 mm, CD kesma AC kesmadan 0,6 cm uzun, DB kesma esa CD dan 0,07 dm qisqa bo'lsa, AB kesmaning uzunligini toping.	
		Qo'shni burchaklar xossasidan foydalanib, ularning gradus o'lchovini topa oladi, transportir yordamida qo'shni burchaklarni chiza oladi	Agar qo'shni burchaklar 4:5 nisbatdaligi ma'lum bo'lsa, shu burchaklar necha gradus ekanligi aniqlang va bu qo'shni burchaklarni transportir yordamida chizing.	5
	Burchak. Burchaklarni taqqoslash va o'lchash	Burchak bissektisasi va qo'shni burchaklar xossasidan foydalanib, chizmadagi noma'lum burchak qiymatini topa oladi	Rasmda tasvirlangan chizma uchun quyidagilar ma'lum: • A, O va F nuqtalar bir to'g'ri chiziqda joylashgan; • $\angle BOC = 60^\circ$; • $\angle COD = 10^\circ$; • $\angle DOF = 60^\circ$.  AOB va COD burchaklar bissektisalari orasidagi burchakni toping.	5
Jami				25 ball

Izoh: Ushbu materiallar o'qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma'lumotni beradi.

O'qituvchi yuqoridagi ma'lumotlar asosida BSB topshiriqlarning turli variantlarini shakllantirishi mumkin.